

## BOLAGA MEHR KERAK!

Nurova Laylo

Peshku tuman Sadir MFY otinoyisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10608165>

*Annotatsiya.* Murg'ak go'dakni suyub-erkalab ko'kka otsangiz, u qo'rqmaydi, aksincha, shodon qiyqirib, sizni ham quvonchiga sherik qiladi. U biladi: ishonchli qo'llar yiqilishiga aslo yo'l qo'ymaydi. Bu – buyuk ishonch! Ana shu ishonchning hech qachon so'nmasligi sizni bizga, butun insoniyatga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

**Kalit so'zlar:** bola, tarbiyachi, munosabat, sharaf, mehr-muruvvat, ta'lim, tarbiya.

## A CHILD NEEDS LOVE!

*Abstract.* If you caress a baby bird, it will not be afraid, on the contrary, it will squeal happily and share its joy with you. He knows: reliable hands will never let him fall. This is a great confidence! The fact that this trust never fades is a great responsibility for you and us, all of humanity.

**Key words:** child, educator, relationship, honor, kindness, education, training.

## РЕБЕНКУ НУЖНА ЛЮБОВЬ!

*Аннотация.* Если погладить птенца, он не испугается, а наоборот, радостно завизжит и поделится с вами своей радостью. Он знает: надежные руки никогда не дадут ему упасть. Это большое доверие! То, что это доверие никогда не угасает, – это большая ответственность для вас и нас, всего человечества.

**Ключевые слова:** ребенок, воспитатель, отношения, честь, доброта, воспитание, обучение.

Payg'ambarimiz Rasululloh s.a.v "Bolalar jannatning rayhonlaridir"dedilar (Muslim rivoyati) Alloh toalo bolani beg'ubor, beozor qilib yaratdi. Bolani sevmaydigan inson bo'lmasa kerak. Bolani mehr degan tuyg'u bilan sevmoq kerak. Ustoz, murabbiy kasbini tanladingizmi, qalbingiz mehrga to'liq bo'lmog'i lozim.

Ijtimoiy tarmoqlarda ko'rib qolamiz ayrim ta'lim maskanlarida jajji bolachalarga qo'pol muomalada bo'lib, hattoki urib tarbiya bermoqchi bo'lganlarni. Tarbiya mehr bilan beriladi. Ota-ona bolasini ilm dargohiga mehr va tarbiya bersin, ilm o'rgatsin deb yetaklab keladi.

Bolaga shunchaki tarbiyachi emas haqiqiy onadek munosabat ko'rsatish, muruvvatli qalb egasi bo'lmoq tarbiyachi uchun sharafdir. Shu sharafli kasb orqasidan bolajonlardan mehrimizni

ayamaylik. Bolalar bizning kelajagimiz deydi dono xalqimiz. Allohning ne'mati bo'lgan bolalarimizni urib-so'kib emas, shirin so'z bilan, mehr bilan tarbiyalaylik. Sifatli talim-tarbiya ko'rgan avlod faqatgina komil ustoz va murabbiylarning yuksak asaridir.

Bolalarni himoya qilish, asrab-avaylash – kundalik vazifa. Butun insoniyat va insonparvar jamiyat uchun bundan muhimroq vazifaning o'zi yo'q, desak mubolag'a bo'lmaydi. Shuningdek, mamlakatimizda sohaga doir o'ziga xos institutsional tizim yaratilgani ham e'tiborga molik.

Bosh prokuror rahbarligida voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyasi, Ichki ishlar vazirligi qoshida voyaga yetmaganlarni ijtimoiy himoya qilish markazi faoliyat olib bormoqda.

Bolalarning ijtimoiy himoyasini ta'minlovchi, iste'dodini qo'llab-quvvatlovchi jamg'armalar, jamoat tashkilotlari tashkil etilgan. Voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlariga rioya etilishi doimiy ravishda nazorat qilib kelinmoqda.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, sifatsiz va vasfsiz kimsalar tarbiyalaganlar-o'zlariga o'xshab nuqsonli va layoqatsiz kishilardan iborat jamiyat a'zolarini kamol toptirishidan oldin, qonunga muvoffiq kasbiga noloyiq tarbiyachilarga safimizga joy yo'qligini ko'rsatib qo'yamiz!.

Talim-tarbiyada muvaffaqiyatning eng asosiy kaliti-sabr, sabot va fidoiylikdir.